O‘zbekistonda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun


I. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
II. Respublika hududlari kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish
IV. Uslubiy tushuntirishlar

I. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida” PF-173-son Farmoniga muvofiq, 2026-yil 15-yanvar holatiga ko‘ra, o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari asosida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hisoblandi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmi **465 346,7** mlrd so‘mni tashkil etdi. Shundan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda xizmat ko‘rsatish hajmi – **416 344,7** mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligida – **41 253,3** mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligida – **7 748,7** mlrd so‘mni tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati



II. Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari o‘sish sur’atlari 2025- yilning mos davriga nisbatan hududlar kesimida tahlil qilganda, Sirdaryo (**107,8** foiz), Namangan (**106,2** foiz), Surxondaryo (**105,7** foiz), Jizzax (**105,1** foiz) va Qashqadaryo (**104,9** foiz) viloyatlarida yuqori o‘sish kuzatildi.

Shu bilan birga, boshqa hududlarga nisbatan pastroq o‘sish sur’atlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**103,6** foiz), Andijon (**103,8** foiz), Farg‘ona (**103,9** foiz), Toshkent (**104,0** foiz) va Xorazm (**104,0** foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yil yanvar-sentabr

	Hajmi, mlrd so‘m	O‘sish sur’ati, % da
O‘zbekiston Respublikasi	**465 346,7**	**104,6**
Hududlar		
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	18 484,6	103,6
Andijon viloyati	39 161,3	103,8
Buxoro viloyati	39 194,9	104,3
Jizzax viloyati	35 187,9	105,1
Qashqadaryo viloyati	46 240,5	104,9
Navoiy viloyati	19 651,8	104,3
Namangan viloyati	31 968,8	106,2
Samarqand viloyati	53 287,5	104,3
Surxondaryo viloyati	43 338,8	105,7
Sirdaryo viloyati	15 513,0	107,8
Toshkent viloyati	53 789,1	104,0
Farg‘ona viloyati	41 711,5	103,9
Xorazm viloyati	27 817,0	104,0

III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **410 579,6** mlrd so‘mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **104,6** foizni tashkil etdi. Shundan, dehqonchilik mahsulotlari hajmi **202 958,3** mlrd so‘mni (**106,9** foiz), chorvachilik mahsulotlari hajmi **207 621,3** mlrd so‘mni (**102,1** foiz) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng katta hajmi Samarqand (**46 632,1** mlrd so‘m), Toshkent (**44 598,0** mlrd so‘m), Qashqadaryo (**42 605,4** mlrd so‘m) va Surxondaryo (**40 918,1** mlrd so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, eng kam hajm Sirdaryo viloyatida (**13 294,7** mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasida (**14 225,2** mlrd so‘m) va Navoiy viloyatida (**17 861,5** mlrd so‘m) qayd etildi.

Yuqori o‘sish sur’atlari Sirdaryo (**109,0** foiz), Namangan (**106,6** foiz) va Surxondaryo (**105,6** foiz) viloyatlarida kuzatildi.

Samarqand (**103,4** foiz), Toshkent (**103,7** foiz) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**103,7** foiz) esa, aksincha, boshqa hududlarga nisbatan pastroq o‘sish sur’atlari qayd etildi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **62,3** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **26,7** foizi fermer xo‘jaliklariga, **11,0** foizi esa qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2026-yil yanvar-sentabr

	Hajmi, mlrd so‘m	O‘sish sur’ati, % da
O‘zbekiston Respublikasi	**202 958,3**	**106,9**
Hududlar		
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6 835,7	105,7
Andijon viloyati	19 456,4	105,3
Buxoro viloyati	17 528,6	106,5
Jizzax viloyati	12 561,1	109,8
Qashqadaryo viloyati	18 927,1	107,8
Navoiy viloyati	6 013,4	109,0
Namangan viloyati	14 944,8	109,2
Samarqand viloyati	22 283,6	105,8
Surxondaryo viloyati	21 096,8	108,7
Sirdaryo viloyati	8 570,0	113,5
Toshkent viloyati	22 219,2	104,7
Farg‘ona viloyati	22 342,4	104,4
Xorazm viloyati	10 179,2	106,8

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari,

2026-yil yanvar-sentabr

	Miqdori, ming tonna	O‘sish (kamayish) sur’ati, % da
Donli ekinlar	9 896,2	116,3
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	6 989,7	119,5
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 396,6	107,8
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	1 509,9	111,1
Kartoshka	3 562,9	106,6
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	986,5	120,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	2 444,0	102,0
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	132,4	107,4
Sabzavotlar	10 788,6	103,6
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	3 607,0	107,7
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	6 534,6	104,1
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	647,0	81,6
Poliz ekinlari	2 869,0	104,5
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	1 042,2	99,3
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 616,8	107,5
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	210,0	109,3
Meva va rezavorlar	3 308,4	104,1
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	1 328,9	102,8
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 770,5	106,1
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	209,0	96,5
Uzum	1 796,3	104,6
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	785,4	111,5
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	928,4	100,5
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	82,5	93,6

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy dehqonchilik mahsulotlari bo‘yicha yuqori o‘sish sur’atlari donli ekinlarda – **116,3** foiz, paxta xom-ashyosi – **111,8** foiz va kartoshkada – **106,6** foiz kuzatildi.

Qolgan asosiy turdagi mahsulotlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan: uzum – **104,6** foiz, poliz mahsulotlari – **104,5** foiz, meva va rezavorlar – **104,1** foiz hamda sabzavotlar – 103,6 foizni tashkil qildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari (ming tonna)

2026-yil yanvar-sentabr

	Donli ekinlar	*Kartoshka*	*Sabzavotlar*
O‘zbekiston Respublikasi	**9 896,2**	**3 562,9**	**10 788,6**
Hududlar			
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	410,3	72,0	312,6
Andijon viloyati	707,5	328,4	1 329,9
Buxoro viloyati	806,4	241,8	866,3
Jizzax viloyati	977,3	110,9	527,3
Qashqadaryo viloyati	1 032,1	258,2	778,2
Navoiy viloyati	331,3	146,0	273,2
Namangan viloyati	681,6	344,0	818,5
Samarqand viloyati	973,5	935,0	1 793,7
Surxondaryo viloyati	966,2	292,2	1 084,5
Sirdaryo viloyati	656,5	72,9	289,4
Toshkent viloyati	777,0	310,8	1 053,0
Farg‘ona viloyati	946,3	339,9	1 348,1
Xorazm viloyati	630,2	110,8	313,9

Mahsulot turlari bo‘yicha donli ekinlarning **70,6** foizi fermer xo‘jaliklariga, **14,1** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **15,3** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, kartoshkaning **27,7** foizi fermer xo‘jaliklariga, **68,6** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **3,7** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga tegishli bo‘ldi, shuningdek, sabzavotlarning **33,4** foizi fermer xo‘jaliklariga, **60,6** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **6,0** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi, poliz ekinlarining **36,3** foizi fermer xo‘jaliklariga, **56,4** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **7,3** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga tegishli, meva va rezavorlarning **40,2** foizi fermer xo‘jaliklariga, **53,5** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **6,3** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga, uzumning **43,7** foizi fermer xo‘jaliklariga, **51,7** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **4,6** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Yetishtirilgan ayrim turdagi dehqonchilik mahsulotlari hajmi (ming tonna)

2026-yil yanvar-sentabr

	Poliz ekinlari	*Meva va rezavorlar*	*Uzum*
O‘zbekiston Respublikasi	**2 869,0**	**3 308,4**	**1 796,3**
Hududlar			
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	153,1	108,8	7,0
Andijon viloyati	153,1	412,2	62,0
Buxoro viloyati	177,7	320,4	216,5
Jizzax viloyati	383,2	111,0	27,4
Qashqadaryo viloyati	394,5	335,3	112,4
Navoiy viloyati	111,7	116,8	80,3
Namangan viloyati	143,5	246,6	77,3
Samarqand viloyati	204,2	415,2	670,2
Surxondaryo viloyati	420,3	300,3	201,2
Sirdaryo viloyati	357,6	82,4	13,7
Toshkent viloyati	88,6	144,3	83,3
Farg‘ona viloyati	154,6	559,9	202,1
Xorazm viloyati	126,9	155,2	42,9

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi **207 621,3** mlrd so‘mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **102,1** foizni tashkil qildi.

Hududlar kesimida eng ko‘p yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi Samarqand (**24 348,4** mlrd so‘m), Qashqadaryo (**23 678,2** mlrd so‘m), Toshkent (**22 378,8** mlrd so‘m), Surxondaryo (**19 821,3** mlrd so‘m) va Buxoro (**19 355,1** mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi.

O‘z navbatida, eng past hajmlar Sirdaryo viloyati (**4 724,7** mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**7 389,4** mlrd so‘m) va Navoiy viloyatida (**11 848,1** mlrd so‘m) kuzatildi.

Yuqori o‘sish sur’atlari Farg‘ona (**103,9** foiz), Namangan (**103,7** foiz), Toshkent (**102,5** foiz), Surxondaryo (**102,1** foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda tirik vaznda yetishtirilgan go‘sht hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan **102,1** foizni, sog‘ib olingan sut **101,7** foizni, olingan tuxum **107,5** foizni, qirqib olingan jun **106,2** foizni, olingan qorako‘l teri **107,2** foizni, ovlangan baliq **105,8** foizni tashkil etdi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Miqdori	*O‘sish (kamayish) sur’ati, % da*
Go‘sht *(tirik vaznda)*, ming tonna	1 924,5	102,1
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	165,0	103,3
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 508,1	101,9
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	251,4	102,2
Sut, ming tonna	7 377,5	101,7
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	685,5	102,7
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	6 487,8	101,3
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	204,2	109,6
Tuxum, mln dona	7 483,6	107,5
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	1 301,0	104,6
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	3 493,8	104,4
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	2 688,8	113,3
Jun, tonna	32 214,2	106,2
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	5 153,0	126,5
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	23 948,5	101,3
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	3 112,7	118,6
Qorako‘l teri, ming dona	938,0	107,2
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	160,8	116,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	626,5	101,4
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	150,7	127,1
Baliq, ming tonna	270,8	105,8
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	66,7	109,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	123,8	104,9
qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar	80,3	104,4

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlilida, yetishtirilgan go‘shtning umumiy hajmidan **8,6** foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga, **78,3** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **13,1** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Shunga mos ravishda sog‘ib olingan sut umumiy hajmining **9,3** foizi fermer xo‘jaliklari, **87,9** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **2,8** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hissasiga tegishli bo‘ldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **17,4** foizi fermer xo‘jaliklari, **46,7** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **35,9** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan.

Shuningdek, qirqib olingan junning **16,0** foizi fermer xo‘jaliklari, **74,3** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **9,7** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako‘l terining **17,1** foizi fermer xo‘jaliklariga, **66,8** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **16,1** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hissasiga tegishli.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning **24,6** foizi fermer xo‘jaliklariga, **45,8** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **29,6** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tomonidan ovlanganligi qayd etildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Go‘sht (tirik vaznda) (ming tonna)	*Sut (ming tonna)*	*Tuxum, mln dona*	*Baliq (ming tonna)*
O‘zbekiston Respublikasi	**1 924,5**	**7 377,5**	**7 483,6**	**270,8**
Hududlar				
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	71,4	235,2	285,8	16,2
Andijon viloyati	137,5	545,9	512,9	22,7
Buxoro viloyati	190,8	687,6	506,8	23,1
Jizzax viloyati	146,9	535,5	327,3	32,8
Qashqadaryo viloyati	203,5	977,1	452,2	4,7
Navoiy viloyati	127,4	242,8	378,8	14,7
Namangan viloyati	125,5	490,4	658,5	10,4
Samarqand viloyati	228,3	895,2	1 346,7	15,9
Surxondaryo viloyati	173,1	554,0	529,6	10,2
Sirdaryo viloyati	40,4	192,8	323,2	20,2
Toshkent viloyati	232,8	634,9	1 215,7	43,0
Farg‘ona viloyati	129,5	681,6	554,3	18,5
Xorazm viloyati	117,4	704,5	391,8	38,4

IV. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining yalpi mahsuloti (xizmatlari) hajmi – bu tarmoqda o‘z iste’moli va sotish uchun yetishtirilgan mahsulot qiymati, shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik, o‘rmon xo‘jaligi va yog‘och tayyorlash, baliqchilik va akvakultura yalpi mahsuloti (xizmatlari) qiymati asosida shakllanadigan xizmatlarning umumiy qiymatidir.

Qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi – qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulot hajmining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda hisobot davrida yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari qiymatlarining yig‘indisi.

Fermer xo‘jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo‘jaligi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo‘jaligi a’zolarining shaxsiy mehnati asosida amalga oshiruvchi xo‘jalikdir *(O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.04.2021- yildagi O‘RQ-680-son).*

Tomorqa xo‘jaligi shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog‘liq mehnat faoliyatidir *(O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.04.2021- yildagi O‘RQ-681-son).*

Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar – bu yirik qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, yuridik shaxs tashkil etgan holda qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, yordamchi xo‘jalikka ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan tashkilotlardir.

Chorva mollari bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollarining asosiy turlari (qoramol, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va hokazo) bo‘yicha barcha yosh guruhlarini o‘z ichiga oladi.

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut sog‘ib olish – yosh mollarni boqish uchun sarflangan og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya suti bilan belgilanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi mahsulot hajmiga kiritilmaydi.

Tuxum olish – barcha turdagi parrandalardan olingan tuxumlar miqdorini, shuningdek, kurk tovuqlar yoki inkubator yordamida jo‘ja ochirish uchun sarflangan tuxumlarni ham o‘z ichiga oladi.

Metama’lumot uchun havola:

https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2

Tayyorlash uchun mas’ul:
Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit statistikasi boshqarmasi

Manzil: *100170, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63;*

Aloqa uchun: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1230)